




Sirdaryo viloyatida chakana savdo tovar aylanmasi joriy yilning yanvar-sentyabr oylarida o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 %ga oshdi.


Yirik korxonalarining chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi 6,3 %ni, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 88,2 %ni tashkil qildi.

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovar aylanmasi va o'sish sur'atlari (o'tgan yilning shu davriga nisbatan, %da)



Chakana savdo tovar aylanmasi hajmida katta ulushga ega bo'lgan Guliston shahri (38,4 foiz), Sirdaryo (11,5 foiz), Guliston (8,4 foiz) va Sardoba (8,2 foiz) tumanlari chakana savdo tovar aylanmasining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan.

Hududlarning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi, % da



Ovqatlanish tashkilotlarini qo'shgan holda, chakana savdo tovarlar aylanmasi aholi jon boshiga 3,3 foizga oshib, 2013,1 ming so'mni tashkil etdi (2017 yil yanvar-sentyabr oylarida 1655,6 ming so'mni tashkil qilgan edi).

O'rtacha jon boshiga tovarlar aylanmasining eng yuqori ko'rsatkichlari Guliston shahri (7177,0



ming so`m), Yangiyer shahri (3055,5 ming so`m) va Sardoba tumanida (2128,9 ming so`m) kuzatildi.

Aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi

| | Ming so`m | o`tgan yilning shu davriga nisbatan, %da |
|--------------------------|---------------|--|
| Sirdaryo viloyati | 2013,1 | 103,3 |
| Guliston shahar | 7177,0 | 113,3 |
| Shirin shahar | 1100,5 | 90,3 |
| Yangier shahar | 3055,5 | 98,7 |
| Boyovut tumani | 708,9 | 99,3 |
| Guliston tumani | 2006,0 | 98,2 |
| Mirzaobod tumani | 1819,4 | 98,2 |
| Oqoltin tumani | 1299,5 | 93,0 |
| Sardoba tumani | 2128,9 | 98,4 |
| Sayxunobod tumani | 821,5 | 99,4 |
| Sirdaryo tumani | 1532,6 | 101,3 |
| Xovos tumani | 632,3 | 93,9 |

KICHIK TADBIRKORLIKNING CHAKANA SAVDODAGI ULUSHI


Kichik tadbirkorlikning tovar aylanmasi o'tgan yilning shu davriga nisbatan 5,0 % ga oshdi va jami chakana savdo tovar aylanmasi hajmidan 93,7 % ini tashkil qildi.

Kichik tadbirkorlikning umumiy tovar aylanmasi hajmidan 158,8 mlrd. so'mni uyushmagan savdo tashkil qiladi. Ushbu sektorning jami chakana



savdo tovar aylanmasidagi ulushi
9,6% ni tashkil etdi.

Tuman shaharlar kesimida chakana savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi % da.



Chakana savdo tovar aylanmasi umumiy hajmida eng katta ulush Guliston shahrida 38,4%, Sirdaryo tumani 11,5%, Guliston tumanida 8,4%, Sardoba tumanida 8,2 %, va eng past ulush Shirin shahar 1,2%, qayd etildi.


2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ULGURJI TOVAR AYLANMASI

2018 yil yanvar-sentyabr oylarida ulgurji tovar aylanmasi 866,2 mlrd. so'mni tashkil qildi yoki 2017 yilning shu davriga nisbatan 102,9 %ni tashkil qildi.

Ulgurji tovar aylanmasining o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati ko'payishi kuzatilgan hududlar quyidagilardan iborat: Xovos tumani 177,5 %, Guliston shahar 118,8 %, Shirin shahar 113,5 %, Guliston tumani 112,7 %.

Kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulgurji savdo tovar aylanmasi 2,9 %ga oshdi va 500,0 mlrd. so'mni tashkil qildi, umumiy ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi 57,8 %ni tashkil qildi.

Tuman shaharlar kesimida ulgurji savdo aylanmasidagi kichik biznes ulushi %da.



Sirdaryo viloyati statistika
boshqarmasi Tashqi iqtisodiy faoliyat
va savdo statistikasi bo`limi bosh
mutaxassisi:

Nashr uchun mas`ul: D.Xasanov